

2022

"Yoshlar daftari"ga Tadbirkorlik (hunarmandchilik, kasandachilik) faoliyati bo'yicha kelib tushgan arizalar soni:

jami:
4560

erkaklar:
2303

ayollar:
2257

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

30 (16483)
2022-yil, 18-may
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Kun mavzusi
3-bet

Markaziy Osiyo yoshlar
forumi boshlandi

5 tashabbus olimpiadasi
4-5-betlar

Hech kim mag'lub
bo'lmadi

Nigoh
7-bet

RTM o'qituvchiga
e'tiroz bildirdi



Foto: Nosir HAYDAROV

Ilon shaklidagi tosh tumor. Miloddan avvalgi II ming yillikka tegishli. So'x, Farg'ona vodiysi.

ILON SHAKLIDAGI TOSH TUMOR – O'ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDAGI ENG NODIR EKSPONATLARDAN BIRI

18-MAY - XALQARO MUZEYLAR KUNI

batafsil
7-betda

47 LIDER

RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA TAYINLANDI



"Kelajak liderlari" klubi qanday harakat? Klubga a'zo bo'lish shartlari qanday? Klubga qabul qilinganlarga rahbarlik kursisi tayyor deganimi? Ular uchun Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida mahorat darslari tashkil qilinishidan xabaringiz bormi? Klub a'zolaridan 47 nafari rahbarlik lavozimiga ko'tarilganidan-chi? Unda ushbu maqola aynan siz uchun yozilgan.

Klub birinchi marta Samarqand viloyatida Yoshlar ishlari agentligi va viloyat hokimligining hamkorlik to'g'risidagi qo'shma qaroriga asosan tashkil etildi. Maqsad davlat fuqarolik xizmati uchun yangi avlod kadrlarini shakllantirish, yoshlarni, ayniqsa, xotin-qizlarni davlat fuqarolik xizmatiga keng jalb qilish edi.

Dastlab "Kelajak liderlari" klubi a'zolari uchun Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan "Yoshlar oromgohi"da "Jamocani shakllantirish", "Time management" hamda ularning bilim-ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradigan kvest-treninglar o'tkazildi. Liderlar treninglar davomida o'rtirgan bilimlarini viloyat yoshlari orasida targ'ib qilish hamda ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida mashg'ulotlar o'tkazildi. Jarayonlar yoshlar tomonidan ijobiy kutib olingani bois hududda klubga qiziquvchi yoshlar soni ortdi.

Shundan so'ng mazkur loyihani butun respublika bo'ylab ommalashtirishga qaror qilindi va yurtimizning barcha hududlaridan jami 680 nafar a'zosi 4 bosqichli tanlov asosida "Kelajak liderlari" klubiga saralab olindi. Ichki tanlov asosida klub prezidenti va bir nafar klub vitse-prezidenti hamda 8 nafar koordinator saylandi.

Bundan tashqari, "Hokim bilan bir kun", "Dublyor", "Agentlikda bir kun", "Davlat tashkilotlarida stajirovka o'tash" kabi loyihalar amalga oshirilib, klub a'zolarida rahbarlik ko'nikmasi, tashkilotchilik, strategik fikrlash kabi bilimlar shakllandi.

Tinimsiz mehnat, albatta, o'z mevasini beradi. "Kelajak liderlari" klubi faoliyati davomida klub a'zolaridan 47 nafari rahbarlik lavozimlariga ko'tarilgan. Joriy yilning fevral oyida klub a'zolarining 9 nafari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidagi, Islom Karimov nomidagi, Alisher Navoiy nomidagi, To'lepbergen Qayipbergenov nomidagi nomdor stipendiyalar sovrindori bo'ldi.

Bundan tashqari, mahalladagi yoshlar yetakchisi lavozimiga klub a'zolaridan 15 nafari ochiq tanlov orqali tanlab olindi. Shu bilan birga, klub a'zolari "Toshkent yoshlar forumi - 2021"da respublikaning 14 ta hududi orasidan Xorazm viloyati "Kelajak liderlari" klubining "Biznes bond", Sirdaryo viloyati "Kelajak liderlari" klubining "Raqqamli innovatsion o'rgimchak tarmog'i" loyihalari g'olib deb e'tirof etildi.

Joriy yilning ikkinchi yarmida respublikaning 14 ta hududidagi "Kelajak liderlari" klubiga ochiq tanlov e'lon qilinishi rejalashtirilgan. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yoshlarni davlat hokimiyati va boshqaruv organlaridagi mas'ul lavozimlarga bosqichma-bosqich tayyorlab borish maqsadida faoliyat yuritayotgan "Kelajak liderlari" maxsus malaka oshirish dasturining 1- va 2-mavsumlariga respublikaning barcha hududlaridan davlat xizmatchilari saralab olingan bo'lsa, kelgusida mazkur dasturning 3-mavsumiga faqat klub a'zolaridan 50 nafar eng faol yoshlarni o'qitish rejalashtirilgan. Ular O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida mediasavodxonlik, kreativ va tanqidiy fikrlash, o'zgarishlarni boshqarish, global siyosiy-iqtisodiy jarayonlar va ularda O'zbekistonning ishtiroki kabi mashg'ulotlar hamda mahorat darslarida qatnashishi belgilangan.

Mazkur maxsus dasturni muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilar "Kelajak liderlari" loyihalarning mantiqiy zanjiri natijasi sifatida Milliy kadrlar zaxirasiga kiritilishi orqali malakali yosh rahbar kadrlar qatami shakllandi.



Abdulaziz MO'MINOV,
Yoshlar ishlari agentligi Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i



Feruza JO'RAYEVA,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi yetakchi inspektori

Klubga a'zo bo'lish uchun har bir nomzod to'rt bosqichli - nomzodning shaxsiga oid ma'lumotlarni (elektron so'rovnomada) shakllantirish, bilimlarini baholash bo'yicha test sinovlarini topshirish, ijodiy va fikrlash salohiyatini hamda amaliy ko'nikma va sifatlarini baholash sinovlaridan o'tishi talab etiladi.

"KELAJAK LIDERLARI" KLUBI NIZOMIGA KO'RA, A'ZOLAR O'Z XOHISHI BILAN TADBIR VA LOYIHALARDA KAMIDA UCH MAROTABA SABABSIZ ISHTIROK ETMASA, UCH OY DAVOMIDA KAMIDA BITTA IMTIYOZGA YETARLI BALL TO'PLAY OLMASA, NIZOM TALABLARIGA RIOYA ETMASA, 35 YOSH DAN OSHGAN BO'LSA, A'ZOLIKDAN CHIQRILADI.

BETAKROR SHOIRAMIZNING TABARRUK YODI

Nazokat USMONOVA,
O'ZA muxbiri

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva tavalludining 75 yiliga bag'ishlangan adabiy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

"Bayroqdek hilpirab vaqt kelayotir..." nomli adabiy-ma'rifiy kechada ijodkor ziyolilar, talaba-yoshlar, adabiyot muxlislari ishtirok etdi.

Hassos shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida isyonkor ruh, milliylik, vatanparvarlik, samimiyat, onalar itziri bo'lib ustuvor o'rin egallaydi. Adabiyotshunoslar fikricha, shoira ijodi 60-yillardan boshlangan bo'lib, "Ilk muhabbat", "Oq olmalar", "Chaman", "Suyanch tog'larim", "Bobo quyosh", "Issiq qor", "Sadoqat", "Muqaddas ayol", "Yuragimning og'riq nuqtalari", "Hurlik o'ti", "Bu kunlarga yetganlar bor", "To'marisning



aytgan" kabi she'riy, nasriy kitoblari muxlislarning ma'naviy mulkiga aylangan.

Uning Fazu Alieva, Silva Kaputikyan, Ibroyim Yusupov ijodidan tarjimalari e'tiborga molikdir. Halima Xudoyberdiyeva o'zining "Muqaddas ayol" nomli she'riy to'plami uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. 1992-yili shoiramizga "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvoni berilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Halima Xudoyberdiyeva "El-yurt hurmati" hamda "Fidokorona xizmatlari uchun" ordenlariga munosib topilgan.

Adabiy-ma'rifiy tadbirda ustoz shoiraning "Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor" kitobi taqdimoti o'tkazildi.

MARKAZIY OSIYO YOSHLAR FORUMI BOSHLANDI

**2022-YIL 18-20-MAY KUNLARI MAMLAKATIMIZDA
MARKAZIY OSIYO YOSHLAR FORUMI BO'LIB O'TADI.**

**O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi hamda
hamkor tashkilotlar ko'magida
o'tkazilayotgan forum oldidan
tashkiliy ishlarining borishi
hamda o'tkaziladigan tadbirlar
xususida Yoshlar ishlari agentligi
direktorining o'rinbosari Dilnoza
Kattaxonova quyidagilarni
ma'lum qildi:**



– “Markaziy Osiyo yoshlar forumi” dan ko'zlangan asosiy maqsad nimalardan iborat?

– Forumdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadimiz mehmonimiz bo'layotgan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston davlatlarining yoshlar siyosatiga mas'ul vazirlari bilan ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazish, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yoshlar siyosati sohasida hamkorlikni kuchaytirish hamda umumiy hamkorlikning 2022-2023-yillarga mo'ljallangan “Yo'l xaritasi” ni ishlab chiqishdan iboratdir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi bilan Qirg'iziston Respublikasi Madaniyat, axborot, sport va yoshlar siyosati vazirligi, Turkmaniston Sport va yoshlar vazirligi hamda Tojikiston Respublikasi

likasi hukumati qoshidagi Yoshlar ishlari va sport qo'mitasi o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik memorandumlari imzolinishi kutilmoqda.

– Xalqaro forumda kimlar ishtirok etadi?

– Forumda ilm-fan va axborot texnologiyalari yo'nalishlarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi yoshlar siyosatiga mas'ul davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari rahbarlari, xalqaro, respublika fan olimpiadalari g'oliblari, xalqaro darajadagi shaxmatchi va grossmeysterlar, ax-

ninglar o'tkazilishi, shu bilan birga, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish maqsadida “Zakovat” intellektual o'yini hamda Markaziy Osiyo yosh shaxmatchilari turniri tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, yuqori martabali mehmonlar ishtirokida “Astrum” IT akademiyasida “Markaziy Osiyo yoshlari bog'i” ning tantanali ochilish marosimi o'tkaziladi.

Bundan tashqari, chegara hududlarida istiqomat qilayotgan yoshlar o'rtasidagi ishonch hamda do'stlik aloqalarini mustahkamlash, mintaqadagi intellektual salohiyatli yoshlarni birlashtirish maqsadida 21-23-may kunlari bir vaqtning o'zida Andijon viloyatida “O'zbekiston-Qirg'iziston yoshlari forumi” va Farg'ona viloyatida “O'zbekiston-Tojikiston yoshlari forumi” o'tkazilishi rejalashtirilgan.

– Yoshlar forumidan qanday natijalar kutilmoqda?

– Jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida yoshlar siyosati sohasida hamkorlikni rivojlantirishda va yoshlar uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyiha va dasturlar ishlab chiqiladi.

Forumga tashrif buyuradigan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlarining yoshlar siyosatiga mas'ul vazirlari bilan ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkaziladi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yoshlar siyosati sohasida hamkorlikni kuchaytirish hamda umumiy hamkorlikning 2022-2023-yillarga mo'ljallangan “Yo'l xaritasi” ishlab chiqiladi.

Dilnoza ABDUHAMIDOVA
suhbatlashdi

“KAMALAK”

21

YOSHDA



Har kuni, har soatda, har daqiqada, har soniyada minglab chaqaloqlar dunyoga keladi. Ular asta-asta yurishni o'rganadi, gapiradi va bu jarayon rivojlangani sari inson ham komillik sari qadam tashlaydi.

Xuddi insonlar singari tashkilotlar ham “tug'iladi”, paydo bo'ladi. Faqat ularning “ota-onasi” davlat yoki ma'lum bir shaxslar bo'lishi mumkin. Yaqin kunlarda ana shunday tashkilotlardan biri – “Kamalak” bolalar tashkiloti 21 yoshni qarshilaydi.

Tashkilot 2001-yil tashkil topgan bo'lib, bugungi kunda unga 3 million nafardan ziyod bolalar o'z-o. Tashkilotning asosiy bo'g'ini bu – Sardorlik faoliyatidir. Hozirda Sardorlar soni 400 000 nafardan ziyod.

Yurtimizdagi bolalarning sevimli tashkiloti joriy yilning 19-24-may kunlari o'zining XXI Anjumanini o'tkazadi. Unga Toshkent viloyatining viqorli tog'lari mezbolik qilish arafasida. Anjuman qatnashchisi bo'lish baxtiga sazovor bo'lgan yoshlarni yaqin kunlarda ajoyib yangiliklar va betakror lahzalar kutmoqda.


Sardor SA' DULLAYEV

“
MARKAZIY OSIYO
MINTAQASIDA YOSHLAR
SIYOSATI SOHASIDA
HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA
VA YOSHLAR UCHUN IJTIMOY
AHAMIYATGA EGA BO'LGAN
LOYIHA VA DASTURLAR
ISHLAB CHIQLADI.

borot texnologiyalari sohasining yosh mutaxassislardan iborat jami 150 nafar yurtimiz va xorij yoshlari ishtirok etishi ko'zda tutilmoqda.

– Forum doirasida qanday tadbirlar o'tkaziladi?

– Forumda ishtirokchilar tomonidan mintaqada yoshlar siyosati sohasini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalar ishlab chiqilishi, shaxsiy rivojlanish bo'yicha te-



ZAKOVATLILAR ANIQLANDI

Joriy yil aprel oyida “Yoshlar ovozi” gazetasining telegramdagi @yoshlarovozi rasmiy kanalida “Zakovat” intellektual klubi bilan hamkorlikda “Zakovat” onlayn viktorina tashkil etilgan edi. Kecha viktorina g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Viktorinaning saralash bahslarida 25 nafar yosh final bosqichiga yo'llanma olgan edi. Finalda 3 nafar bilimdon ketma-ketlikda berilgan 3 ta savolga – 1-savolga buxoralik Sherzod

Rashidov, 2-savolga sirdaryolik Abdunayim Abdushukurov, 3-savolga yana bir sirdaryolik Ilhom Qambariddinov eng birinchi bo'lib to'liq va to'g'ri javob yo'llab, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Yoshlar ishlari agentligida bo'lib o'tgan taqdirlash marosimida “Yoshlar ovozi” gazetasi tahririyati jamoasi hamda “Zakovat” intellektual klubi rahbari Abdurasul Abdullayev ishtirok etib, o'yin haqida fikrlari bilan o'rtoqlashdi, g'oliblarga o'z tilaklarini bildirdi.

– Viktorina haqida fikrim juda yaxshi, – dedi tanlov g'olibi Abdunayim Abdushukurov. – Yoshlarni mantiqiy fikrlashga, bilim olishga undovchi loyiha. Savollar darajasi ham juda yaxshi tanlangan. Shunday loyihalarni tashkillashtirganlarga rahmat aytib qolaman.

G'oliblarga maxsus diplom hamda zamonaviy smartfonlar topshirildi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

SUPER FINAL: HECH KIM MAG'LUB BO'LMADI

Yoshlar orasida katta shov-shuvga aylangan "Yoshlar ovozi" festivalining super finali yakunlandi. Kutilgan shartlarning kutilmagan natijalari, hayajonli onlar, g'oliblarni taqdirlash – hammasi betakror. Bo'zatrovda yangragan yangi ovozlarning chin ma'noda kashfiyot bo'ldi. Bu yil festival qatnashchilari soni keskin oshgani ham tanlovning yildan yilga nufuzi ortib borayotganidan nishona.



– Yoshlarning ishtiyoqi, qiziqishi, salohiyati bizga katta kuch beradi, yanada keng imkoniyatlar yaratib berishga undaydi, – dedi g'oliblarni taqdirlash marosimida so'zga chiqqan Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev. – Mazkur tanlov eng chekka hududdagi o'z iqtidori, salohiyati, bilimi bilan jamiyat orasida obro'ga erishishni istagan iqtidorli yoshlar uchun katta trampoline vazifasini o'taydi. Festivalga eng kuchli hakamlarni jalb qilishga harakat qildik, xalq artistlari, estradamizning eng mashhur yulduzlari kelishdi. Aslida bu festivalda mag'lublarning yo'q, sababi bu yoshlarning iqtidorini namoyon qilishi, o'zini sinab ko'rishi uchun katta maydon.

E'tiborli jihati, festival davomida minglab yoshlar tanlov apellyatsiya komissiyasiga murojaat etgan. Bu jarayon nihoyatda qizg'in ruhda o'tgani, g'oliblikka davog'lar ko'pligi va ular o'ziga ishonganidan dalolatdir.

Iste'dodlar orasidan eng munosiblarni tanlab olish oson bo'lmadi. Ijro mahorati uchun 3,5 ball, ovoz imkoniyati uchun 3,5 ball, sahna libosi va aktyorlik mahorati bo'yicha 1,5 balldan – jami 10 ballgacha to'plash imkoniyati berildi.



Fotograf: Anvar Tuychiyev



Shirin MAMATOVA.
hakamlar hay'ati a'zosi:

– Munosib ijodkorlar ko'p, lekin ayrim yulduzlar o'ziga munosib repertuar tanlay olmagan. Shu bois ularga boshqa yo'nalishda qo'shiqlar kuyatib, ovoz imkoniyatlarini bildik va ularni haqqoniy baholashga harakat qildik. Ishtirokchilarning orasida taniqli talantlar ham bor. Biz g'oliblarni aniqlashda eng chekka hududdan ekanligiga alohida ahamiyat berdik. Sababi chekka qishloq yoshlari professional bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmasa-da, shu yerga qadar yetib kelib, o'zini namoyon qila oldi. Bizning asosiy maqsadimiz haqiqiy iste'dodlarni kashf etish.

Final bosqichini telekanallar va internetda jonli efrida kuzatib borish imkoniyati ham yaratildi. Bu esa hammadan ko'proq ishtirokchilarning ota-onasini suyuntirdi, ular farzandlarini ekran ortida qo'llab turdi.



Sanobar MAJIDOVA,
festivalning 16-22 yosh toifasida an'anaviy ijro yo'nalishi g'olibi – Sevinch Jovliyevaning onasi (Toshkent shahri):

– Men baxtiyor onalardan biriman. Qizim ikkinchi bor "Yoshlar ovozi" festivalida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritmoqda. Bu yil ham 50 million so'mlik pul mukofoti bilan qaytmoqda.

Qizim Sevinch qo'lga kiritgan har bir natija oilamizga quvonch bag'ishlaydi. Oilaviy sari atkorligimiz bois qizim 3 yoshidan raqs hamda qo'shiqchilikni o'rganib ulg'aydi. Ilk bor 5 yoshida O'zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekovning konsert dasturida raqs ijro etgan edi. Shundan buyon katta sahnalarda ustozlar duosini olib kelmoqda.




Sevinch JOVLIYEVA





Alimbay KARIMBAYEV,
festivalning 23-30 yosh toifasida
estrada yo'nalishi g'olibi
(Nukus shahri).

— Bu tanlovda ishtirok etganimning o'zi bir baxt. Chunki endi san'atga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarga katta paydevor, motivatsiya, yanada kuch, shijoat bag'ishlaydi. "Yoshlar ovozi" festivalida 1-o'rinni egallash ham sharaf, ham mas'uliyat hissini berarkan kishiga. 1-o'rinni egallash bilan ota-onamning, ustozlarimning, qoraqalpoq o'lining ishonchini oqladim deb hisoblayman.



Darhaqiqat, festivaldan hech kim mag'lub bo'lib qaytmadi. Ammo unda ishtirokchi bo'lish ko'pchilik uchun orzuligicha qoldi.



Marjona RO'ZIMURODOVA,
festivalning 10-15 yosh toifasida
estrada yo'nalishi qatnashchisi
(Navoiy shahri).

— Oldin ham ko'plab tanlovlarda qatnashganman, lekin birinchi marta respublika darajasidagi tanlovda katta sahnaga chiqdim. Albatta, hayajon bo'ldi, lekin hayajonni yengib, o'z imkoniyatlarimni boricha ko'rsatib, ingliz tilida qo'shiq ijro etdim. Hakamlar ingliz tilidagi talaffuzim va qo'shiqni his qilish ijro etishga e'tibor qaratishim lozimligini ta'kidlab o'tishdi. Bu tanlov menga juda katta mahorat maktabi bo'ldi. Keyingi yili shu jihatlarga e'tibor bergan holda, eng yaxshi natijalarga erishishni niyat qildim. Buning uchun menda tajriba bor.

Iqbol Pardayeva,
Muhammadshukur
Muhammadjonov,
Yoshlar ovozi muxbirlari



Xushnudjon SOLIJONOV,
festivalning 23-30 yosh toifasida
an'anaviy ijro yo'nalishi g'olibi
(Toshkent shahri).

— Bu festivalda ilk bor ishtirok etdim. Tanlov tasavvurimdan-da alo darajada bo'ldi. Chiqishimda "Saf-ti navo" qo'shig'ini ijro etdim. Bu ijro meni super finalga olib chiqdi. Super finalda Muhammadjon Mirzayev musiqalashtirgan Muqimiyning "Yolg'iz" gazalini ijro qildim va g'olib deb topildim. Albatta, bunda ustozlarim va ota-onamning hissasi katta. G'oliblar orasida bo'lishimga ishonar edim, lekin 1-o'rinni kutmagandim. Sababi raqiblarim ham kuchli edi. Ulardan ko'p narsa o'rgandim.



177

IMKONIYAT

ISH BERUVCHILAR UCHUN SUBSIDIYA

Prezidentimizning 2020-yil 6-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan aholi bandligiga ko'maklashish markazida ro'yxatdan o'tgan ishsiz shaxslarni ishga qabul qilgan ijarachilar uchun kafolatlar nazarda tutilgan.

Jumladan, ularga ish haqi to'lash xarajatlarini qoplash uchun 6 oy davomida o'rtacha ish haqining 50 foiz (har bir oy uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 barobaridan oshmagan) miqdorda subsidiya to'lanishi belgilangan. Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.

IMTIYOZNI TAQDIM ETISH TARTIBI VA MUDDATLARI:

O'rmon fondi yerlarini ijaraga olgan ijarachilar Aholi bandligiga ko'maklashish markazi (ABKM)da ro'yxatdan o'tgan ishsiz shaxslarni ishga qabul qilgan taqdirda, ularga ish haqi to'lash xarajatlarini qoplash uchun 6 oy davomida o'rtacha ish haqining 50 foizi, biroq har bir oy uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobaridan oshmagan miqdorda subsidiya ajratishni so'rab, tegishli hududdagi ABKMga murojaat qiladi.

Murojaatda ijarachi ABKM yo'llanmasi asosida ishga qabul qilingan shaxslarning F.I.O. to'lab berilishi lozim bo'lgan subsidiya miqdori hamda tashkilotning hisob raqami ko'rsatilishi, shuningdek, murojaatga xodimning ishga qabul qilinganligi to'g'risidagi buyruq nusxasi ilova qilinishi shart.

ABKMning mas'ul xodimi taqdim etilgan hujjatlarni 5 ish kuni ichida o'rganib chiqadi va murojaatda ko'rsatilgan xodim uchun subsidiya ajratish to'g'risidagi rozilik bildiradi va subsidiya ajratish to'g'risida buyruq rasmiylashtiriladi.

ABKM rahbarining subsidiya ajratish to'g'risidagi buyrug'iga asosan, ish beruvchi tashkilotga uning murojaatida ko'rsatilgan har bir xodim uchun 6 oy davomida o'rtacha ish haqining 50 foizi, biroq har bir oy uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobaridan oshmagan miqdorda subsidiya ajratiladi va ABKM tomonidan ish beruvchiga oyma-oy to'lab beriladi.

Davlat soliq xizmati organi tomonidan ABKM yo'llanmasi bilan ishga qabul qilingan shaxsga ish haqi hisoblanmaganligi to'g'risida ma'lumot berilganda, ushbu ma'lumot berilgan vaqtdan boshlab ABKM tomonidan xodimning ish haqi to'lash xarajatlarini qoplash uchun ajratilgan subsidiyani to'lab berish to'xtatiladi.



5 TASHABBUS OLIMPIADASI

KULAMIZ, KULDIRAMIZ

Yaxshi kayfiyat va kulgi umrni uzaytiradi. Ayniqsa, yoshlarning yaxshi kayfiyat bilan maqsadlar sari bel bog'lashi, kelajakda yangidan-yangi marralarga erishishida ham ko'makchi bo'ladi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" bu jihatlarga e'tibor bergan holda o'z tarkibiga "Quvnoqlar va zukkolar" tanlovini ham kiritgan. Kattaqo'rg'on shahridagi harbiy qismda yoshlarning iste'dodini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Quvnoqlar va zukkolar" tanlovining shahar bosqichi o'tkazildi. Bosqichda 4-sektorning Amir Temur nomidagi mahallasi jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritib, viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

ZUKKOLAR BELLASHUVI

Shofirkon tumanida "Zukko kitobxon" tanlovining sektor bosqichi o'tkazildi. Yoshlarning kitob o'qish va uni targ'ib qilishga qiziqishi oshgani



sari fikr-mulohazalari ham teranlashib, bilimlari kengayib boraveradi. "Zukko kitobxon"ning sektor bosqichi buni yana bir bor isbotladi.

Har bir mahalla jamoalari o'z hududi sha'nini himoya qilish uchun bor imkoniyatlarini namoyish etadi. Yakunda "Zukko kitobxonlar", "Jilvon yoshlari", "Bilimdonlar" va "Kitobxon yoshlar" jamoalari g'olib deb topildi.

G'olib jamoalarga Yoshlar ishlari agentligi Shofirkon tumani bo'limi tomonidan diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Lobar QODIROVA



BILIMDON YOSHLAR UCHUN BEPUL OROMGOH

17-maydan boshlab "Ibrat" tillar oromgohiga @ibratcampbot telegram boti orqali ro'yxatdan o'tish boshlandi. Arizalar qabuli 20-mayga qadar (shu kuni ham) davom etadi.

Oromgohda ilk mavsum ingliz tilidan bo'lib o'tadi. Bunda 16 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan, ingliz tilida kamida B1 darajaga ega barcha yigit-qizlar ro'yxatdan o'tib, ishtirok etishi mumkin.

Platformada testni boshlash tugmasini bosgandan so'ng test ishlash uchun 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Tanqidiy fikrlash (Critical thinking) savollari uchun umumiy 10 daqiqa, 2 ta savolning har biriga 5 daqiqadan vaqt berilgan.

Test va suhbatdan eng yuqori natija ko'rsatgan yoshlar oromgohga qabul qilinadi. Oromgohning birinchi mavsumi joriy yilning 6-12-iyun sanasida; ikkinchi mavsum esa 13-19-iyun sanalarida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan. Oromgoh mutlaqo bepul!

KITOBXONLAR UCHUN KATTA IMKONIYAT

"Yosh kitobxon" tanlovi 2017-2021-yillar orasida 3 million nafardan ortiq yoshlarni qamrab olgan. Birgina 2021-yilgi mavsumda qariyb 555 ming nafar yoshlar ro'yxatdan o'tib, tanlovda ishtirok etdi.

16-maydan "Yosh kitobxon" tanlovining 2022-yilgi mavsumiga @yoshkitobxon_bot telegram boti orqali ro'yxatdan o'tish boshlandi. Arizalar qabuli 1-sentabrga qadar mazkur bot orqali davom etadi.

Eslatib o'tamiz, tanlovda respublika bosqichiga chiqqan har bir ishtirokchi pul mukofotlari, 1-o'rin sohibi esa Prezident sovg'asi — "Spark" avtomobili bilan taqdirlanadi. Shuningdek, joriy yildan tanlovning viloyat bosqichida yuqori natijaga erishgan yoshlarni ham taqdirlash rejalashtirilyapti.



@alisher_sadullayev telegram kanalidan olindi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI O'QITUVCHIGA E'TIROZ BILDIRD

Xabaringiz bo'lsa, gazetamizning 2022-yil 16-aprel, 21-sonida Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi 15-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Nodira Isayevaning "Filning qulog'idek darsliklar..." sarlavhasi ostidagi maqolasi chop etilgan edi. Kuni kecha Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi ushbu maqola yuzasidan tahririyatga o'z munosabatini taqdim etdi.



"...Nodira Isayevaning Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan yangi o'lchamdagi zamonaviy darsliklarni "filning qulog'i"ga qiyoslashi, ularda rasmiy ma'lumotlar ko'payib ketgani, darslik uchun yaratilgan mobil ilovalar o'quvchilarni dangasa qilib qo'yishi haqidagi e'tirozlarini, darsliklarning mazmun-mohiyatidagi o'ziga xos jihatlarni tahlil qilmay turib, darslik hajmiga qarab baho berishini noprofessionallik, o'qituvchiga xos bo'lmagan nomunosib xatti-harakat deb baholaymiz", deyiladi munosabatda.

Munosabat "Darsliklarni yaratish jarayoni shunchaki bir nechta muallif ishtirokida amalga oshirilmadi: Jarayonda xalqaro ekspertlar, mutaxassislar va, asosan, o'qituvchilardan iborat katta jamoa ishladi. Darslikdagi har bir o'zgarish xalqaro darslik yaratish standartlari va ilg'or davlatlarning tajribasi o'rganib chiqilganidan keyingina kiritildi. Ba'zi ish bermagan yangi-

liklar tajriba-sinov jarayonida boshqasi bilan almashtirildi yoki olib tashlandi", deya davom etadi.

E'tirozli munosabatda darsliklar hajmi masalasiga ham to'xtab o'tilgan.

"Vazirlar Mahkamasining Ta'lim muassasalari uchun xavfsiz poligrafiya mahsulotlarining umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda Sanitariya-epidemiologik nazorat markazining o'quv nashrlariga qo'yadigan gigiyenik talablariga ko'ra, 1-4-sinf o'quvchilari uchun bir dona darslik og'irligi 300 gramdan oshmasligi belgilab qo'yilgan. 2-sinf darsliklarining o'rtaacha og'irligi esa 200-220 gramni tashkil qiladi va bu belgilangan talablarga mos keladi. Avvalgi 1-2-sinf darsliklari 70x90 bi-

chida 225 ga 175 sm o'lchamda edi. Bu o'lchamdagi kitobni sumkada olib yurish qulaydek tuyulgani bilan kitob kichikligi hisobiga 1-sinf o'quvchisi uchun noqulay shrift va dizayndan foydalanib kelingan. Yangi darsliklar esa 60x84 bichimda, ya'ni 300 ga 208 sm hajmda tayyorlandi. Bu o'lchov xalqaro darslik yaratish standartlaridan kelib chiqib tanlangan bo'lib, o'quvchining yoshiga, psixologik-fiziologik rivojlantirishiga har tomonlama mos keladi.

Ta'lim mazmunining o'zgarishi shakliy o'zgarishlarni ham talab qiladi. Ilgari darsliklarda, asosan, nazariy ma'lumotlar berilgani uchun rasmlarga kam joy ajratilgan. Tangadek joyda juda kichik hajmda berilgan rasmlar bolalarni zavqlantirma-

gan, ta'lim olishida ahamiyatli sanalmagan. Zamonaviy darsliklarni esa ta'limiy maqsadni ko'zlagan turli rasmlar, chizmalar, diagramma va jadvallarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki ma'lumotlarni vizual holatda qabul qilish o'rganishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunda o'quvchilarning nafaqat fanga qiziqishi ortadi, balki matn bo'lmagan materialni ham tushunish ko'nikmasi rivojlanadi".

Munosabatda qayd etilishicha, rasmlarning berilishiga nisbatan "qoida kam, rasm ko'p" qabilida baho berish noo'rin. Chunki aksar topshiriqlarda rasm asos qilib olingan. Ya'ni kitobdagi rasm va bezaklar ta'lim jarayonining muhim omiliga aylangan.

Respublika ta'lim markazi "Raqamli dunyo bolalarini kompyuter va smartfonlardan ajratish deyarli ilojisiz. Bunday vaziyatda eng ma'qul yo'l ularga qurilmalardan ilm olish maqsadida foydalanishni o'rgatishdir. Yangi darsliklarda har bir o'quvchining o'rganish imkoniyati turlicha ekanini inobatga olgan holda turli mobil ilovalar hamda geymifikatsiya metodidan foydalanilgan. Chunki hamma bolalar ham mavzuni kitobdan o'zlashtirishga qiziqavermaydi. Materialni smartfondagi o'yin ko'rinishida o'zlashtirish esa allaqachon raqamli dunyoning bir bo'lagiga aylanib ulgurigan bolalar uchun qulaylik yaratadi", deya o'z xulosasini yakunlagan.

GAZETAMIZDA YANGI LOYIHA!

Loyiha muallifi:
Ziyoda RAHIMBOYEVA

“MUZEY VA YOSHLAR”



Xabaringiz bor, bo'lmasa, endi bilib olasiz: dunyo miqyosida may oyining 18-sanasida nishonlanadigan, yurtimizda 1977-yildan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Xalqaro muzeylar kuni" munosabati bilan yoshlarni muzey sayohatlariga ko'proq jalb etish, tarixiy bilimlarini boyitish va tahririyat bilan mustahkam aloqani yo'lga qo'yish maqsadida ushbu loyihamizni havola etmoqdamiz!

Qanday ishtirok etsam bo'ladi, nima qilishim kerak, deytganlar va loyihaga qiziqqanlar diqqatiga, loyihani gazetamizda e'tibor bilan kuzatib

boring, sayohat uchun tanlangan muzey haqidagi qiziqarli ma'lumotlar va muzey xodimlari bilan intervyularni o'qing, eng asosiysi, loyiha doirasida belgilangan vaqt ichida shu muzeyga siz ham tashrif buyurib, olgan taassurotingiz va fotosuratlaringizni bizga taqiriz shaklida yozib jo'nating!

Eng yaxshi taqiriz egasi tahririyat tomonidan maxsus sovg'aga ega bo'ladi va yozgan taqiriz gazetada e'lon qilinadi.

Loyihamizning ilk safari poytaxtimizning Yunusobod tumanida joylashgan O'zbekiston tarixi Davlat muzeyiga bo'ladi.

MUZEY NECHA
YOSHDA?

1876-yili Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib asos solingan, 1992-yili qayta tashkil etilib, "O'zbekiston tarixi" nomi, 1999-yili "Davlat muzeyi" maqomi berilgan. Bu yil maskan 146 yoshni qarshilamoqda.

Otaxon muzey shu kungacha 50 dan ortiq yangi muzeylarni tashkil etishda yordam ko'rsatib, ilmiy-nazariy va amaliy tomondan qo'llab-quvvatlab kelmoqda. 344 mingdan ortiq eksponat, 20 mingga yaqin kitobdan iborat ilmiy kutubxona fondiga ega.

Muzey mehmonlarga nafaqat yurtimiz, millatimizning bir yarim million yillik boy tarixi haqida so'zlab bermoqda, balki keng qamrovli arxeologik qazishmalar, etnografik ekspeditsiyalar olib borish hamda turli grant loyihalarda ishtirok etish bilan ham shug'ullanib kelmoqda.

BU ENG KICHIK
SABAB...

Bugun ko'pchiligimizning asosiy vaqtimiz kompyuter qarshisida yoki internetda o'tayotgani, achchiq bo'lsa-da, haqiqat! Biroq ko'pchilik yonginamizda internet klublaridan ham qiziqarliroq va foydaliroq joylar borligidan bexabar.

O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori Jannat Ismoilova biz, yoshlar muzeyga sayohat qilishimiz uchun eng kichik sabablardan birini keltirib o'tadi, qolgan sabablarni topish uchun muzeyga sayohat qilishning o'ziyoq kifoya, nazarimizda.



– Yurtimizning qaysi viloyatiga bormang, har bir hududning o'z muzeyi bor. Bu, albatta, qunvonarli hol, – deydi Jannat Ismoilova.

– Biroq bizning O'zbekiston tarixi Davlat muzeyini ulardan ajratib turuvchi, har bir viloyat ahlini kelib ko'rishga undovchi bir sabab bor, bu ham bo'lsa, muzeyda butun bir millat, necha yuz yillik tarixga ega davlatchiligimiz to'laqonli qamrab olinganidir. Aytmoqchimanki, Samarqandga borsangiz, Samarqandning, Farg'onaga borsangiz, shu viloyatning tarixi bilan batafsil tanishish imkoniga ega bo'lasiz. Bizning muzeyda esa bir vaqtning o'zida 12 viloyat tarixi bilan yaqindan tanishishingiz mumkin. Bu O'zbekiston tarixi Davlat muzeyiga sayohat uyushtirishingiz uchun eng kichik sabab, keling va ko'ring, sizni hali yanada ko'p zirirli sabablar kutmoqda!




MUZEYDA HAR OYNING BIRINCHI YAKSHANBASI SHAHRIMIZ AHLI VA MEHMONLARI UCHUN BEPUL XIZMAT KO'RSATISH KUNI SIFATIDA BELGILANGAN BO'LSA, SESHANBA VA JUMA KUNLARI OCHIQ ESHIKLAR KUNI DEB E'LON QILINIB, BOG'CHA TARBİYALANUVCHILARIDAN TORTIB KOLLEJ TALABALARIGACHA BEPUL KIRISH IMKONIYATINI TAQDIM ETADI.

ODDIY EMAS,
MO'JIZALAR MUZEYI.

Hashamatli binoning ikki qavatini to'ldirgan, million yil avvalgi hayotdan tortib mustaqillik davrigacha bo'lgan shonli tarixdan hikoya qiluvchi muzey tasarrufida (ichida) 2011-yili respublika miqyosida birinchi bo'lib Bolalar muzeyi tashkil etildi. "Mo'jizalar olamida" deb nom olgan mo'jaz muzey bugun jajji sayohatchilarning sevimli maskaniga aylangan. Muzeyda tashkil etilgan bepul ijodiy kulochilik mahorat maktabiga rahbarlik qiluvchi Faniya Dedenova ish faoliyatidagi taassurotlarini biz bilan o'rtoqlashdi va bolajonlarni mo'jaz muzeyga taklif etdi.

– Bu muzey mo'jizaviy, chunki bu yerga har kuni jajji mo'jizalar – bolajonlar tashrif buyurishadi, – deydi rassomlar uyushmasi a'zosi, ijodiy to'garak rahbari Faniya Dedenova.

– Nafaqat shahrimiz, balki Toshkent viloyatining Ohangaron, Angren shaharlaridan tashrif buyuruvchi maktab o'quvchilari, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan birga turli kulochilik namunalarini yasaymiz, aniqrog'i, bunga birgalkda harakat qilamiz. Turli shakllarni yasashga mo'jallab tayyorlangan qolipchalar, loy va bo'yoqlar – bolajonlar vaqti mazmunli va foydali o'tishi uchun shulaming o'zi yetarli. "Mo'jizalar olamida" nomli mo'jaz kulochilik to'garagi 4 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan ko'pchilik o'g'il-qizlar va ularning ota-onalarida katta qiziqish uyg'otmoqda. To'garak nafaqat vaqtni unumli o'tkazish, shu bilan birga bolajonlarning aqliy rivojlanishi uchun ham juda foydali. Yaqinlashib kelayotgan yozgi ta'til kunlarida barcha ota-onalar va bolajonlarni muzeyimizning ushbu mo'jaz qismida kutib qolaman. To'garagimiz bepul!



Loyihamizda ishtirok etish istagidagi aziz mushtariylardan joriy yilning 29-may sanasiga qadar yoshlar-ovozi@mail.ru pochta manzilida muzeyga uyushtirgan sayohat va undan olgan taassurotlar haqidagi erkin taqirizlar va muallifning muzey binosi ichida tushgan kreativ, #Men_va_muzey hashtegli va qabul suratini kutib qolamiz va qabul qilamiz.

Taqirizingizda yorqin taassurot qoldirgan eksponatlar va ularning tarixi, muzeyning tuzilishi yoki tasvirlangan surat va tarixiy hikoyalarga haqida ham keltirib o'tishingiz mumkin. Qani, endi ko'p o'ylanmay, muzeyga yo'ling!


“WIKISTIPENDIYA” UNDA KIMLAR QATNASHA OLADI?



Bugun ko'pchilik yoshlarni qiziqirgan loyihalar qatorida "WikiStipendiya" marafoni alohida o'ringa ega. Xo'sh, aslida bu marafon nima va u yoshlar hayotida qanday ahamiyat kasb etadi?!

Sir emaski, bugungi kunda internet tarmoqlaridagi ma'lumotlarning 63,6 foizi ingliz, 6,9 foizi rus va ajablanarlisi, uchinchi o'rinda qariyb 4 foiz natija bilan turk tildari o'rin egallab turibdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, dilimizning yana bir og'rig'i sifatida bugun o'zbek tilidagi ma'lumotlar 0,1 foizni tashkil etmoqda. Bu esa o'zbek tilida so'zlashuvchilarning informatsion globallashuv davrida ma'lumot olishiga to'sqinlik qilmoqda. Bu muammolarning yechimi sifatida internet tarmoqlarida o'zbek tilidagi sifatli ma'lumotlar miqdorini ko'paytirishning eng samarali usullaridan biri Wikipediya o'zbekcha maqolalarning sonini ko'paytirish lozimdir.



WIKIPEDIYA NIMA?

2001-yil 15-yanvar kuni asos solingan Wikipediya loyihasi ko'p tili, erkin internet ensiklopediyasidir. Hozirgi kunda Wikimedia Foundation notijorat tashkiloti boshqaruvidagi loyiha eng katta va eng ko'p murojaat qilinadigan ma'lumotlar manbasiga aylangan.

MARAFONGA MARHAMAT!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi 5850-sonli Farmoniga binoan, davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni kitobxonlikka jalb qilish, o'zbek tilidagi sifatli ma'lumotlarni ko'paytirish va iqtidorli talabalarni munosib rag'batlantirish maqsadida WikiStipendiya marafoni yo'lga qo'yildi.

Loyiha O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda Respublika yosh ijodkorlar kengashi hamkorligida tashkil etildi. Tashkilotchilar o'tkazgan matbuot anjumanida Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari Dilnoza Kattaxanova, Davlat tili masalalari bo'yicha Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari Mehrnoz Abbasova, AOKA direktorining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi Kanat Abduraimov, Respublika yosh ijodkorlar kengashi raisi Muhammadxon Yusupov, taniqli wikipediya administratorlari loyihaning mazmuni haqida OAV xodimlari va blogerlarga ma'lumot bergan edi.



Jumladan, Dilnoza Kattaxanova loyiha maqsadi haqida gapirar ekan, bunday loyihalarni ko'paytirish kerakligi va agentlik ularni qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanini ta'kidladi.

Ma'lum qilinishicha, marafon joriy yil 20-maydan 20-dekabr gacha qadar yosh darajasi chegaralanmagan auditoriyada o'tkaziladi, qatnashish imkoniyati barcha uchun ochiq. Marafon yakunida 1-o'rin sohibi 50 million so'm, 2- va 3-o'rin sovrindorlari mos ravishda 40 va 30 million so'm, kuchli beshthalikka kirganlar 20 million so'm, kuchli o'ntalikka kirganlar 10 million so'mdan pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida marafonning ochilish marosimi bo'lib o'tadi. Marosimda Toshkent shahridagi OTMlarning ilmiy masalalar bo'yicha prorektorlari bilan uchrashuv, qiziquvchi yoshlarga wikiadministratorlar tomonidan master klasslar o'tib berildi.

Marafon start olgunga qadar wikipediya maqola joylash ko'nikmalari haqida videodarslar taqdim etilishi ma'lum qilindi. Wikipediya administratorlari tizimga maqolalar qanday joylanishi, tahrirlash, yozish mahorati va texnikasi haqida batafsil to'xtalib, buni amalda ko'rsatib berdi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqirgan barcha savollarga javob oldi. Tadbir so'ngida xulosa va takliflar ham tinglandi.

O'zbek tili nechog'li boy va betakror. Uning taraqqiyoti hamda rivoji uchun nafaqat, tilshunolarimiz, adabiyotshunos-u ijodkorlar, balki butun jamiyat o'zining beminnat hissasini qo'shmog'i darkor. Biz ham tilimiz jonkuyarlari bilan birgalikda ulkan maqsadlarni ko'zlagan holda ushbu marafonni yo'lga qo'ydik. **– deydi Yoshlar ishlari agentligi direktorining Davlat tili masalalari maslahatchisi Mehrnoz Abbasova.**

Dilnoza ABDUHAMIDOVA

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
**Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV**

Musahhihlar:
**Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100063, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 52. Telefonlar: (7) 233-22-16. (7) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matba'a aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 farmatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Karxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-555, Adadi – 10586. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6